

# MARKETING

ILMIY, AMALIY VA OMMABOP JURNAL



MARKETING  
INNOVATSIYA  
BRENDING  
SAVDO  
RAQAMLI  
TADQIQOT  
BIZNES



**№ 6 - SON**

**2025-YIL, IYUN**

9710 xalqaro daraja



№240874

ISSN: 3060-4621



OPEN ACCESS





### JURNALNING MAQSADI

Tadbirkorlik-biznes faoliyatini tashkil etishning marketing asoslarini, yo'nalishlari, echimlari, vositalarini yaratish va rivojlantirish

### ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

TEL: (97) 783-84-64

VEB-SAYT

[www.marketingjournal.uz](http://www.marketingjournal.uz)

ELEKTRON POCHTA:

[info@marketingjournal.uz](mailto:info@marketingjournal.uz)

TELEGRAM BOT:

[@marketinjournalbot](https://t.me/marketinjournalbot)

TELEGRAM KANAL:

<https://t.me/tdiumarketingjournal>

### MUASSIS

“Tadbirkor va ishbilarmon” MCHJ

### JURNALNING ILMIYLIGI

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining **2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

### INDEKSATSIYA



### BOSH MUHARRIR

**Xakimov Ziyodulla Axmadovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

**Yusupov Muxamadamin**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor;

### TAHRIR HAY'ATI:

**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori;

**Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna**, i.f.d., prof., TDIU Marketing kafedrasini mudiri;

**Soliyev Axmadjon Soliyevich**, i.f.d., NaMTI Marketing kafedrasini professori;

**Ikramov Murad Akramovich**, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

**Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich**, i.f.d., prof., TDIU Iqtisodiy xavfsizlik kafedrasini mudiri, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi;

**Zarova Elena Viktorovna**, i.f.d., G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti professori, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi

**Akramov Tohir Abdirahmonovich**, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

**Ostonaqulova Gulsaraxon Muhammadyoqub qizi**, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

**Samadov Asqarjon Mishomovich**, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasini professori;

**Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi**, i.f.n., dots., TDIU Kengash kotibi;

**Sobirov Azizbek Avazbekovich**, PhD., TDIU Marketing kafedrasini dotsenti;

**Sadikov Shoxrux Shuxratovich**, PhD, dots., TIU Departament boshlig'i;

**Musyeva Shoirazimovna**, i.f.n., SamISI Marketing kafedrasini professori;

**Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li**, PhD., TDIU Marketing kafedrasini dotsenti;

**Djurabayev Otabek Djurabayevich**, i.f.d., TDIU Innovatsion menejment kafedrasini dotsenti;

**Karimova Shirin Zoxid qizi**, PhD, TDIU Axborot texnologiyalari kafedrasini katta o'qituvchisi;

**Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbaevich**, DSc., Namangan muhandislik-qurilish instituti dotsenti;

**Fayzullayev Javlonbek Sultonovich**, DSc., TDIU, Yashil iqtisodiyot kafedrasini dotsenti;

**Aliyev Yashnarjon Egamberdiyevich**, DSc., TDIU, "Iqtisodiy va moliyaviy xavfsizlik" kafedrasini professori

**Bobojonov Azizjon Babaxanovich**, DSc, TDIU, "Raqamli iqtisodiyot" kafedrasini dotsenti

**Allayarov Shamsiddin Amanullayevich**, DSc, prof., TDIU, "Savdo ishi" kafedrasini mudiri

**Jumaev Olimjon Sadulloevich**, DSc, Raqobat siyosati va iste'molchilar huquqlari tadqiqotlari markazi direktori

**Maxamadjanov Akbar Maxamadaliyevich**, PhD., TDIU Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari fakulteti dekan muovini

**Eshov Mansur Po'latovich**, i.f.d., prof., Alfraganus universiteti "Menejment va marketing" kafedrasini mudiri

**Kucharov Abrorjon Sobirjanovich**, TDIU biznes boshqaruvi va logistika kafedrasini professori

**Nazarova Ra'no Rustamovna**, TDIU "Yashil" iqtisodiyot kafedrasini mudiri, Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Usmonov Bunyod Aktam o'g'li**, PhD, TDIU Moliyaviy tahlil kafedrasini v.b.dotsenti;

**Dehqonov Burxon Rustamovich**, PhD., TDIU Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi bosh mutaxassisi;

**Turobova Hulkar Rustamovna**, PhD., BuxDU, Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrasini dotsenti;

**Elektron nashr** 316 sahifa. E'lon qilishga 2025-yil 30-iyunda ruxsat etildi



# MUNDARIJA

|                                                                                                                                                                                |            |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------|
| <b>LOYIHALASHTIRISH TASHKILOTLARIDA SIFATNI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING ILMIY-USLUBIY ASOSLARI.....</b>                                                          | <b>6</b>   |
| <b>Buriyev Xakim Toshimovich, Usmonov Ilxom Achilovich, Murodov Rustam Toxir o‘g‘li</b>                                                                                        |            |
| <b>XARIDORLAR QAROR QABUL QILISH JARAYONIDA NAFLILIK OMILINING ROLI: SMARTFONLAR BOZORI MISOLIDA MARKETING TADQIQOTI.....</b>                                                  | <b>14</b>  |
| <b>Ergashxodjaeva Shaxnoza Djasurovna, Ro‘zmamatov Abbos Tolibjon o‘g‘li</b>                                                                                                   |            |
| <b>O‘ZBEKISTONDA IQTISODIY O‘SISHNI TA’MINLASHDA QISHLOQ XO‘JALIGI TARMOQLARIGA INVESTITSİYALARNI JALB ETISH BO‘YICHA XORIJIY TAJRIBALARNING SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....</b> | <b>21</b>  |
| <b>Sirojiddin Yangiboev Juramurodovich</b>                                                                                                                                     |            |
| <b>AKSIYADORLIK JAMIYATLARINI QIMMATLI QOG‘OZLAR BOZORI ORQALI MOLİYALASHTIRISH .....</b>                                                                                      | <b>31</b>  |
| <b>Berdaliyev Javohir Jahongir o‘g‘li</b>                                                                                                                                      |            |
| <b>XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASIDA HUDUDIY MARKETINGNING RIVOJLANISH MODELI .....</b>                                                                                          | <b>42</b>  |
| <b>Boltayev Jasurbek G‘ulomovich</b>                                                                                                                                           |            |
| <b>OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA KADRLARNI TANLASH VA SARALASH MEXANIZMLARINING SAMARADORLIGINI TAHLIL QILISH VA UNING TA’LIM SIFATIGA TA’SIRI.....</b>                           | <b>51</b>  |
| <b>Ibragimova Sevara Kabildjanovna</b>                                                                                                                                         |            |
| <b>KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA INVESTITSIYA FAOLIYATI SHAKLLANISH JARAYONLARI TAHLILI.....</b>                                                                           | <b>58</b>  |
| <b>Jurayev Elyorbek Sobirjon o‘g‘li</b>                                                                                                                                        |            |
| <b>IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA HUDUDIY BOSHQARUV TIZIMINI SHAKLLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY OMILLARI.....</b>                                                      | <b>65</b>  |
| <b>Mahmudov Bahriddin Jo‘rayevich</b>                                                                                                                                          |            |
| <b>O‘ZBEKISTON MINTAQALARINING IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANISHINI BAHOLASHGA ILMIY VA NAZARIY YONDASHUVLAR.....</b>                                                              | <b>74</b>  |
| <b>Mullabayev Baxtiyarjon Bulturboyevich</b>                                                                                                                                   |            |
| <b>IQTISODIY RIVOJLANISHNING IKKI OMILI: YASHIL IQTISODIYOT VA MAKROIQTISODIY BARQARORLIK.....</b>                                                                             | <b>84</b>  |
| <b>Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna, Qurbonova Aziza Shavkatovna</b>                                                                                                        |            |
| <b>SERVIS LOGISTIKASI TASNIFI VA UNI BAHOLASHGA YONDASHUVLAR ....</b>                                                                                                          | <b>90</b>  |
| <b>Rajabov Orzujon Mamasoliyevich</b>                                                                                                                                          |            |
| <b>TEMIR YO‘L TRANSPORTINING IQTISODIY KO‘RSATKICHLARI: TAHLIL VA BAHOLASH .....</b>                                                                                           | <b>100</b> |
| <b>Raximov Xasan Shukurjonovich</b>                                                                                                                                            |            |
| <b>RAQAMLI TRANSFORMATSIYAGA YO‘NALTIRILGAN ERP TIZIMLARINI JORIY ETISH ORQALI RAQAMLI IMKONIYATLARNI KENGAYTIRISH .....</b>                                                   | <b>109</b> |
| <b>Azizov Abdulla Abdisalamovich</b>                                                                                                                                           |            |

|                                                                                                                                |            |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------|
| <b>DEVELOPMENT TRENDS OF YOUTH TOURISM IN UZBEKISTAN: PROBLEMS AND PROSPECTS.....</b>                                          | <b>116</b> |
| <b>Samiyev Siroj Saitovich, Umurzoqova Shakhnoza Shukhrat kizi</b>                                                             |            |
| <b>MINTAQA RAQOBATBARDOSHLIGINI TA'MINLASHDA INVESTITSIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI .....</b>                          | <b>122</b> |
| <b>Sapayeva Fazilat Norbayevna</b>                                                                                             |            |
| <b>AVTOMOBILSOZLIKDA MAHALLIYLASHTIRISH: YAGONA RIVOJLANISH YO'LI .....</b>                                                    | <b>128</b> |
| <b>Qobilov Rustam Shuhrat o'g'li</b>                                                                                           |            |
| <b>MADANIYAT SOHASI MUASSASALARINI BUXGALTERIYA HISOBINING O'ZIGA XOS JIHATLARI.....</b>                                       | <b>138</b> |
| <b>Annayev Abdurasul Abdurashidovich</b>                                                                                       |            |
| <b>YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARINING XORIJ TAJRIBALARI.....</b>             | <b>144</b> |
| <b>Narzullayeva Ozoda Qahramon qizi</b>                                                                                        |            |
| <b>ONLAYN SAVDO MAYDONCHALARIDA TOVARLAR SAVDOSINI OSHIRISHDA MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH.....</b>                 | <b>150</b> |
| <b>Baxromov Xudoyor Xabibullo o'g'li</b>                                                                                       |            |
| <b>АНАЛИЗ РЫНКА ГОСТИНИЧНЫХ УСЛУГ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН .....</b>                                                            | <b>156</b> |
| <b>Икрамов Акбар Фарход угли</b>                                                                                               |            |
| <b>TIJORAT BANKLARIDA REBRENDING VOSITASIDA MARKETING INNOVATSIYALARINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI .....</b>                | <b>165</b> |
| <b>Mirzajonova Maftunaxon Jaxongir qizi</b>                                                                                    |            |
| <b>ИННОВАЦИОННЫЕ ЭКОСИСТЕМЫ НА ОСНОВЕ КЛАСТЕРОВ: ИНТЕГРАЦИЯ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ В ГЛОБАЛЬНУЮ ИННОВАЦИОННУЮ СЕТЬ .....</b> | <b>172</b> |
| <b>Усманова Нозимахон Икрам кизи</b>                                                                                           |            |
| <b>NAMANGAN VILOYATIDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI RIVOJLANISHI YO'LLARI.....</b>                                                 | <b>178</b> |
| <b>Alimatova Shoxsanam Abdumalik qizi</b>                                                                                      |            |
| <b>АНАЛИЗ РАЗВИТИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ, ПРЕДОСТАВЛЯЮЩИХ ОЗДОРОВИТЕЛЬНЫЕ УСЛУГИ В УЗБЕКИСТАНЕ .....</b>                                 | <b>184</b> |
| <b>Алимова Шахноза Октямовна</b>                                                                                               |            |
| <b>HUDUDLARNING TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY TAJRIBALARDAN FOYDALANISH.....</b>                                    | <b>194</b> |
| <b>Maksumov Azizxon Nodir o'g'li</b>                                                                                           |            |
| <b>ПОВЕДЕНЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ФИНАНСОВОГО ПОВЕДЕНИЯ НАСЕЛЕНИЯ УЗБЕКИСТАНА: ЭМПИРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ И МЕЖДУНАРОДНЫЙ КОНТЕКСТ .....</b>   | <b>203</b> |
| <b>Захарова Ирина Борисовна, Непейвода Андрей Николаевич</b>                                                                   |            |



|                                                                                                                                                                                      |            |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------|
| <b>MOYLI EKINLAR YETISHTIRUVCHI FERMER XO‘JALIKLARIDA MARKETING TADQIQOTLARIDAN FOYDALANISHNING USLUBIY JIHATLARI.....</b>                                                           | <b>211</b> |
| <b>Valiyeva Aziza Anvar qizi</b>                                                                                                                                                     |            |
| <b>MINTAQALARDA SANOAT TARMOG‘I SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....</b>                                                                                       | <b>219</b> |
| <b>Mirzayeva Intizor Ergashevna</b>                                                                                                                                                  |            |
| <b>STRATEGIK MARKETING YONDASHUVLARI ASOSIDA MATBAA KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH .....</b>                                                                          | <b>228</b> |
| <b>Xolmirzaeva Feruza Abdullaevna</b>                                                                                                                                                |            |
| <b>XUSUSIY TA‘LIM MUASSASALARINING IJOBIY IMIJINI BELGILOVCHI ASOSIY OMILLAR .....</b>                                                                                               | <b>235</b> |
| <b>Odilova Sitara Sayfitdin qizi</b>                                                                                                                                                 |            |
| <b>SOLIQ MA‘MURCHILIGINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH VA RAQAMLASHTIRISH YUZASIDAN 2026-YILDA SOLIQ SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISH YUZASIDAN ISHLAB CHIQLGAN TAHLIL VA TAKLIFLAR .....</b> | <b>243</b> |
| <b>Normurzayev Umid Xolmurzayevich</b>                                                                                                                                               |            |
| <b>QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASIDAGI QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARIDA BOSHQARUVNING ZAMONAVIY HOLATI.....</b>                                                             | <b>257</b> |
| <b>Fayzullayev Jonibek Mambetsaliy o‘g‘li, Ollayorov Behruzbek Sardor o‘g‘li</b>                                                                                                     |            |
| <b>ОПРЕДЕЛЕНИЕ ВОЗМОЖНОСТЕЙ МАРКЕТИНГОВЫХ СТРАТЕГИЙ ДЛЯ РАЗВИТИЯ ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ.....</b>                                                               | <b>264</b> |
| <b>Акрамов Бурибек Фахриддин угли</b>                                                                                                                                                |            |
| <b>OLIY TA‘LIM MUASSASALARI UCHUN DUAL TA‘LIMNING AFZALLIKLARI .....</b>                                                                                                             | <b>272</b> |
| <b>Karimov Muzaffar Abdumalik o‘g‘li</b>                                                                                                                                             |            |
| <b>SANOAT ISHLAB CHIQRISHIDA SUN‘IY INTELLEKT ASOSIDA JARAYONLARNI OPTIMALLASHTIRISH .....</b>                                                                                       | <b>278</b> |
| <b>Rixsiboyev Nozimbek Abdurasul o‘g‘li</b>                                                                                                                                          |            |
| <b>KICHIK BIZNES EKSPORT SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISH BAHOLASH MODELINING ILMIY ASOSLARI VA HUDUDIY AMALIYOTI.....</b>                                                                | <b>287</b> |
| <b>Mamadjanova Tuyg‘unoy Axmadjanovna</b>                                                                                                                                            |            |
| <b>MINTAQADA INVESTITSION SALOHIYATNI OSHIRISHNING XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI .....</b>                                                                                           | <b>297</b> |
| <b>Qobilov Anvar Eshpo‘lotovich</b>                                                                                                                                                  |            |
| <b>HUDUDIY INNOVATSION SIYOSATNI TAKOMILLASHTIRISHDA XORIJ TAJRIBALARINI INSTITUTSIONAL ADAPTATSIYA QILISH IMKONIYATLARI .....</b>                                                   | <b>305</b> |
| <b>G‘aniyev Sanjar Poziljon o‘g‘li</b>                                                                                                                                               |            |

# SOLIQ MA'MURCHILIGINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH VA RAQAMLASHTIRISH YUZASIDAN 2026-YILDA SOLIQ SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISH YUZASIDAN ISHLAB CHIQUILGAN TAHLIL VA TAKLIFLAR

**Normurzayev Umid Xolmurzayevich**

I.f.d.dotsent,

Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha  
inspeksiya soliq bosh inspektori

ORCID: 0009-0001-0130-8766

E-mail: [Umid.Normurzayev@soliq.uz](mailto:Umid.Normurzayev@soliq.uz)

## Annotatsiya

Mazkur maqolada mamlakatda soliq sohalarida ko'p yillardan buyon soliq ma'murchiligini takomillashtirish bo'yicha rivojlantirish sarhisobi, biznes doiralarning ishonchini yanada mustahkamlashga qaratilgan keng ko'lamli islohotlarni takomillashtirishda hududlararo soliq inspeksiyasini o'rni va ahamiyati yoritilgan. O'zbekiston soliq tizimida amalga oshirilayotgan ayrim muhim islohotlar o'rganilib, xorij tajribasi, mamlakatimizda uni qo'llash bo'yicha ilmiy-amaliy xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** soliq siyosati, soliq tushumlari, tahlika-tahlil, xavflar, samaradorlik, raqamli platforma, usullar va vositalar, tahlil, optimallashtirish, soliq imtiyozlari, soliq stavkasi.

## Аннотация

В статье подведены итоги многолетнего прогресса страны в совершенствовании налогового администрирования в налоговой сфере, подчеркнуты роль и значение межрегиональной налоговой инспекции в совершенствовании масштабных реформ, направленных на дальнейшее укрепление доверия деловых кругов. Изучены некоторые важные реформы, реализуемые в налоговой системе Узбекистана, разработаны научно-практические выводы и предложения на основе зарубежного опыта и его применения в нашей стране.

**Ключевые слова:** налоговая политика, налоговые поступления, анализ, риски, эффективность, цифровая платформа, методы и инструменты, анализ, оптимизация, налоговые льготы, налоговая ставка.

## Abstract

The article summarizes the country's long-term progress in improving tax administration in the tax sphere, emphasizes the role and importance of the interregional tax inspectorate in improving large-scale reforms aimed at further strengthening the trust of business circles. Some important reforms implemented in the tax system of Uzbekistan have been studied, scientific and practical conclusions and proposals have been developed based on foreign experience and its application in our country.

**Keywords:** tax policy, tax revenues, analysis, risks, efficiency, digital platform, methods and tools, analysis, optimization, tax incentives, tax rate.

## KIRISH

Soliq siyosati strategiyasi orqali soliq tizimida daromadlarni oshirish qobiliyatini oshirish hamda davlat xarajatlarining barqarorligini ta'minlash, rivojlanayotgan davlatlarning fiskal siyosatini kuchaytirish, adolatli va inklyuziv soliq tizimini joriy etish, soliq siyosati strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirishda raqamli platformalardan samarali foydalanish kabilar bu boradagi ilmiy tadqiqot ishlarining ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi. Bundan tashqari. ushbu islohotlar ko'pincha iqtisodiy o'sishni ta'minlaydigan, investitsiyalarni rag'batlantiradigan va davlat funksiyalari uchun yetarli daromad yig'ilishini ta'minlaydigan yanada samarali, shaffof va adolatli soliq tuzilmasini yaratish zarurati bilan bog'liq.

## ADABIYOTLAR SHARHI

A.Fedorov. [1] fikricha, "ma'muriy yukni kamaytiradigan va yirik soliq to'lovchilarning investitsiya faolligini rag'batlantiradigan soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar taklif etgan, amaldagi soliq imtiyozlarini sezilarli darajada kengaytiradigan va to'ldiradigan hamda o'z investitsiya manbalarini ko'paytiradigan yirik soliq to'lovchilarning investitsiya faoliyatini soliq orqali rag'batlantirish usullari va uslublarini ishlab chiqqan, ularning samaradorligini baholagan"

V.G.Bayborodina [2] "soliq islohotlari – soliq tizimini keng ko'lamli qayta qurish va uni boshqarish mexanizmini o'zgartirish asosida soliq munosabatlarining cheklangan yoki tubdan o'zgarishi sifatida" ta'riflaydi.

I.A.Mayburov [3] "soliq islohoti soliq tizimini tubdan o'zgartirishni davlat soliq siyosatining yangi mazmuniga moslashtirish" deb ta'kidlaydi.

N.M.Dementeva [4] soliq siyosatini davlat iqtisodiy siyosatining in'ikosi ekanligini, u mustaqil ahamiyatga egaligi va soliqlarning ilmiy nazariyasiga asoslanishi lozimligini ta'kidlaydi. "Amalga oshirilayotgan soliq siyosatining natijalari ko'p jihatdan davlat o'z iqtisodiy siyosatiga qanday tuzatishlar kiritishga majbur ekanligini, soliq tizimini qanday qurish kerakligini belgilaydi".

Karp M.V [5] Soliq siyosati davlatning o'rta va uzoq muddatli istiqboldagi umumiy moliyaviy siyosatining tarkibiy qismi bo'lib, soliq sohasidagi davlat faoliyati konsepsiyasi, soliq mexanizmi, soliq tizimini boshqarish kabi tushunchalarni o'z ichiga oladi.

O.Sitnikovaning fikricha, [6] "konsolidatsiyalashgan soliq to'lovchilar guruhiga kiritishda aktivlarini tan olish yoki maxsus qayta baholash zarur, guruhga kirishdan oldin korxonaning zararlarini o'tkazish tartibi ishlab chiqilishi lozim, konsolidatsiyalashgan soliq to'lovchining moliyaviy-xo'jalik faoliyatining bir xil qiymatga ega bo'lgan subyekt sifatida xalqaro e'tirof etilishiga alohida e'tibor qaratilishi lozim".



Yu.Darkina [7] yirik soliq to'lovchilarning xususiyatlari sifatida to'xtalib, "yirik soliq to'lovchilarga quyidagi xususiyatlar xosdir: katta pul oqimi, keng ko'lamli hujjatlar aylanmasi, soddalashtirilgan tizim bo'yicha soliqqa tortiladigan turli tarkibiy bo'linmalarining integratsiyasidan foydalanish, mamlakat ichida ham, chet elda ham turli firmalar bilan hamkorlik mavjudligidir".

## **METODOLOGIYA**

Maqolada muallif ilmiy abstraksiya, qiyosiy tahlil, tizimli tahlil, induksiya va deduksiya usullaridan foydalangan.

## **TAHLIL VA NATIJALAR**

Respublikada adolatli, shaffof, uzoqqa mo'ljallangan va xalqaro andozalarga javob bera oladigan soliq tizimini yaratishga qaratilgan soliq islohotlari iqtisodiy, huquqiy jihatdan har tomonlama asoslangan hamda soliq to'lovchilar uchun qulay va manfaatli ekanligini ko'rsatmoqda.

Birinchi navbatda, tadbirkorlik subyektlari va investorlar faoliyatini soliq sohasida kafolatlashning huquqiy asosi yaratilib, yangi Soliq konsepsiyasi, Soliq kodeksi va 150 dan ortiq qonun, Farmon, qaror va boshqa me'yoriy hujjatlar qabul qilindi.

Bu esa tadbirkorlik subyektlari yanada davlatimiz tomonidan katta e'tibor qaratilayotganligidan dalolat beradi. Biz mazkur maqolamizda bugungi kunda qonunchilikda uchirayotgan muammolarni o'rganib chiqqan xolda mazkur takliflarni berdik.

**Tadbirkorlik subyektlarini ro'yxatdan o'tkazish xamda ro'yxatdan chiqarishdagi muammolar.**

**1.Muammo:** QQS guvohnomasini to'xtatib qo'yish tadbirkorlar faoliyatini cheklab qo'ymoqda, shuningdek, QQS to'loviga majburiy o'tish uchun ariza avtomat shakllanmaganligi sababli ularda ortiqcha xarajatlarni keltirib chiqarmoqda.

Misol uchun: 2024-yilda 5 022 ta yuridik shaxs QQS to'lovchisi sifatida soliq boshqarmalarida ro'yxatga olingan bo'lsa-da, ulardan QQS guvohnomasini olish uchun qo'shimcha ravishda ariza talab qilingan.

Ma'lumot uchun: 20.05.2025-y. holatiga QQS to'lovchi 56425 ta subyektning 12,7 trln.so'm QQSdan qarzi mavjud, shundan QQS maxsus guvohnoma olmagan 6 491 ta subyektda 1 trln.so'mni tashkil qiladi.

**Taklif:** Soliq ma'murchiligida QQS to'lashga o'tgan tadbirkorlarga bir vaqtning o'zida QQS guvohnomasini berish tizimini yo'lga qo'yish. Bunda, majburiy tartibda QQS to'lashga o'tgan yoki davlat ro'yxatidan o'tayotgan jarayonida QQS to'lash rejimini tanlagan subyektlarning QQS guvohnomasini olish uchun arizani inson omilisiz avtomat ravishda yuborish imkoniyatini yaratish.

Mazkur taklifning amaliyotga joriy qilinishi, QQS to'lovchilar uchun ortiqcha vaqt sarflanishi va ortiqcha sarf xarajatlarning oldi olinadi hamda soliq to'lovchilarga qulaylik yaratiladi.

Ozarbayjonda soliq to'lovchilar tomonidan "e-Taxes" elektron tizimi orqali elektron ariza yuboriladi. Qozog'iston 2016-yil 1-apreldan QQS bo'yicha ro'yxatdan o'tganlik to'g'risidagi guvohnomaning shakli chiqarib tashlandi va endi u ro'yxatdan o'tkazuvchi organ mansabdor shaxsining elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlangan elektron hujjat shaklida taqdim etiladi.

### **Soliq va moliyaviy hisobotlar taqdim qilinishidagi muammolar.**

**1. Muammo:** Soliq to'lovchilar tomonidan taqdim qilinadigan soliq va moliyaviy hisobotlar soni ko'pligi natijasida:

- soliq to'lovchilar va soliq organlari xodimlarining ortiqcha vaqt sarflashi va moliyaviy xarajatlari oshishiga;
- yangi ro'yxatdan o'tgan kichik biznes subyektlari hisobotlarni kech topshirganligi yoki topshirmaganligi uchun jarimalar to'lashiga olib kelmoqda.

**Taklif:** Umumbelgilangan soliq to'lovchilar uchun hamda aylanmadan olinadigan soliq to'lovchilar uchun yagona unifikatsiyalashgan shaklda soliq hisobotlarini yaratish. Bunda, EHF, ONKM va boshqa manba ma'lumotlari hamda barcha saytlarda mantiqiy nazorat vositalaridan foydalanish orqali ko'rsatkichlarni avtomat ravishda generatsiya qilish.

Mazkur taklifning amaliyotga joriy qilinishi ortiqcha vaqt sarflanishi va moliyaviy xarajatlari oshishi oldi olinadi hamda soliq to'lovchilar uchun yengillik yaratiladi. Soliq qo'mitasining qaroriga asosan 15 ta soliq hisoboti shakllari (AV 3231, 24.02.2020-y) va Iqtisodiyot va moliya vazirligining buyrug'iga asosan 4 ta moliyaviy hisobot shakllari (AV 3567, 04.11.2024-y) tasdiqlangan.

Hisobotlarni taqdim qilish muddatlari har xil, oylik (QQS – 20 sana, JShDS – 15 sana, AOS – 15 sana, aksiz – 10 sana, nedra – 20 sana, choraklik (foyda – 20 sana, QQS norezident – 20 sana va h.k), yillik (mol mulk – 1 mart, yer – 20 yanvar, suv – 20 mart va h.k) Hisobotlarni belgilangan muddatda taqdim qilmaganligi uchun, korxona rahbarlariga 2024-yilda 484,8 ming holatda 1,6 trln.so'm ma'muriy jarima qo'llanilgan. Bundan tashqari, "Avtokameral" tizimi yordamida 350,4 mingta holatda soliq to'lovchilar tomonidan 779,2 trln.so'mlik tafovut bartaraf etilgan.

Rossiyada kichik biznes va YaTTlar uchun yagona soliq deklaratsiyasi tizimi joriy etilgan;

AQShda elektron hisobot (e-filing) orqali korxonalar 1065-shakl (sharikliklar uchun) yoki 1120-shakllarda (korporatsiyalar uchun) soliq hisobotlarni yagona deklaratsiyada topshiradilar;

Buyuk Britaniyada Making Tax Digital va Estoniyada e-Tax/e-Customs tizimi orqali kompaniyalar QQS va foyda solig'i hisobotlarini yagona raqamli platformada yuborishi mumkin;

Germaniyada ELSTER elektron soliq platformasi orqali QQS, foyda solig'i va boshqa soliqlarni bir tizim orqali topshirish mumkin;

Niderlandiyada DigiD platformasi orqali, turli soliqlar elektron tarzda yagona portalda topshiriladi;

Kanadada NETFILE va EFILE platformalari orqali turli soliqlar yagona formatda yuboriladi;

Singapurda myTax Portal orqali tadbirkorlar soliq hisobotlarini yagona platformada topshirishlari mumkin.

**2. Muammo:** Rasmiy daromadga ega fuqarolar hisobi to'liq yuritilmasligi sababli, aholi soniga nisbatan daromad solig'i to'lovchilar darajasi rivojlangan mamlakatlarda nisbatan past.

Masalan, tijorat banklari omonatlardan olingan foiz ko'rinishidagi daromadlar Soliq kodeksining 378-moddasiga asosan soliqdan ozod etilganligi sababli, soliq agenti sifatida daromad olgan fuqarolar ro'yxatini daromad solig'i hisobotida to'liq aks ettirmasdan kelmoqda. Vaholanki, omonatlardan olingan foiz ko'rinishidagi daromadlar mulkiy daromadlar tarkibiga kiritilib, JShODS hisobotining 6-ilovasida mulkiy daromad olgan fuqarolar ro'yxati va daromadlarini ko'rsatishi lozim.

**Taklif:** Soliq agentlari tomonidan to'lab beriladigan jismoniy shaxslar daromad solig'i bo'yicha Soliq kodeksining 378-moddasida soliqqa tortilmaydigan daromadlarni jismoniy shaxslar kesimida soliq hisobotida aks ettirish. Mazkur taklifning amaliyotga joriy qilinishi, jismoniy shaxslar daromadi-ning shaffofligi oshadi va aholi soniga nisbatan daromad oluvchilar sonining ulushi ko'payadi. Bugungi kunda, jami aholi soniga nisbatan daromad solig'i to'lovchilar darajasi O'zbekiston 16,1 foizni tashkil etadi. IHTT (OECD) hisobotiga ko'ra jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i to'lovchilarining aholi sonidagi ulushi Norvegiyada 93 foiz, Daniyada 91 foiz, Avstriyada 86 foiz, Kanadada 80 foiz, Fransiya 76 foiz va Germaniyada 52,6 foizni tashkil qiladi. Qozog'istonda soliq agentlari har chorakda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i va ijtimoiy soliq bo'yicha hisob-kitoblarida soliqqa tortilmaydigan jismoniy shaxslarga to'langan daromadlarni aks ettiradi.

**3. Muammo:** "O'zsuvta'minot" AJ tomonidan tadbirkorlik subyektlariga yetkazib berilgan suv hajmlari to'g'risidagi ma'lumotlar soliq organlariga to'g'ri va to'liq yetkazib berilmayotganligi sababli, hisobotni avtomatik ravishda shakllantirish imkoniyati mavjud emas. Ma'lumot uchun, elektron axborot almashinuvi orqali kelib tushgan ma'lumotlarda soliq to'lovchining STIRi mavjud emasligi, boshqa



korxonalarning STIR raqamlari kiritilganligi va tugatilgan korxonalarni mavjudligi ma'lum bo'ldi. 2024-yilda respublika bo'yicha 60 336 ta soliq to'lovchi tomonidan hisobotlar topshirilib 639,8 mlrd.so'm hisoblangan. Shundan 19 859 ta soliq to'lovchi tomonidan soliq hisobotlarida 256 ming kub.metr suv hajmini kamaytirib ko'rsatganligi sababli byudjetga 37,5 mlrd.so'm kam to'langan.

**Taklif:** "O'zsuvta'minot" AJ tomonidan iste'mol qilingan suv hajmlari to'g'risida elektron yuboriladigan ma'lumotlarni to'liq xatlovdan o'tkazish hamda faoliyat turi kesimida hisobini yuritish va ushbu ma'lumotlar asosida 2026-yil 1-yanvardan boshlab tajriba tariqasida Toshkent shahrida suv solig'i hisobotini soliq to'lovchilar tomonidan taqdim etish majburiyatini bekor qilgan holda soliq organlari tomonidan avtomatik ravishda hisoblash.

Ushbu takliflarni qabul qilinishi natijasida inson omili cheklanadi, ish hajmi kamayib, samaradorlik oshadi, yashirish holatlarining oldi olinadi va davlat byudjetiga 35-40 mlrd.so'm tushum tushishi ta'minlanadi.

Misol uchun, "O'zsuvta'minot" AJ tomonidan 2024-yilda 54 140 ta suv resurslaridan foydalanuvchi shaxslar 142,3 mln.metr kubdan foydalanganligi to'g'risida ma'lumot taqdim etilgan bo'lsa, Soliq hisobotlarida 59 979 ta korxona 935,7 mln.metr.kub suv hajmi ko'rsatgan. Shuningdek, taqdim etilgan ma'lumotlarning 10 345 tasi (1,8 mln.metr.kub) faoliyatsiz korxonaga to'g'ri kelsa, 8 137 ta (2,4 mln.metr.kub) korxona yoki jismoniy shaxslarning rekvizitlarida xatolik mavjud).

Rossiyada "Raqamli soliq monitoringi" loyihasi doirasida hisobotlarni shakllantirish maqsadida "aqlli hisoblagichlar"ni ("RusGidro") FSXning raqamli tizimlariga ulash masalasi muhokama qilinmoqda.

**4. Muammo:** "Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi hamda vazirlik tarkibidagi tashkilotlarda qazib olingan foydali qazilmalar to'g'risidagi ma'lumotlar real vaqt rejimida soliq organlariga taqdim etilmasligi sababli, soliq to'lovchilar tomonidan haqiqatda qazib olingan foydali qazilmalar to'g'risidagi ma'lumotlar soliq hisobotlarida avtomatik shakllantirish imkoni mavjud emas.

**Taklif:** Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi tomonidan qazib olingan foydali qazilmalar to'g'risidagi ma'lumotlarni real vaqt rejimida Soliq qo'mitasiga elektron yetkazib berish. 2027-yil 1-yanvardan boshlab, yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq hisobotini soliq to'lovchilar tomonidan taqdim etish majburiyatini bekor qilgan holda, soliq organlari tomonidan avtomatik hisoblash. Ushbu takliflar qabul qilingan taqdirda, inson omili cheklanadi, ish hajmi kamayib, samaradorlik oshadi, soliqni yashirish holatlarining oldi olinadi va byudjetga 89,4 mlrd.so'm qo'shimcha mablag' tushishi imkoniyati yaratiladi.

Respublika bo'yicha 1617 ta soliq to'lovchi tomonidan hisobotlar topshirilib 335 mlrd.so'm hisoblangan. Shundan 651 ta (21%) soliq to'lovchi tomonidan soliq

hisobotlarida 17,6 ming kub metr qazilma boylik hajmini kamaytirib ko'rsatgan. Qazib olingan foydali qazilmalar hajmi to'g'risidagi 5 GR hisobotlari 2025-yildan boshlab har chorakda Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligiga taqdim etishi belgilangan bo'lib, bugungi kunga qadar ushbu qaror talablari bajarilmasdan qolmoqda (24.05.2024-yil PQ-187-son qarori). Janubiy Koreya foydali qazilmalarni qazib olish bo'yicha ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish uchun "e-hisobot" tizimidan faol foydalanmoqda. Bu tizim soliq organlari bilan avtomatik tarzda soliq hisobotlarini yaratish uchun integratsiyalashgan.

**5. Muammo:** Yuridik shaxslarning mol-mulk va yer soliqlari bo'yicha soliq hisobotlari soliq organlari tomonidan avtomatlashtirilgan tartibda soliq to'lovchilarga shakllantirib berilmoqda. Shakllantirilgan soliq hisobotlarni korxonalar tomonidan belgilangan muddatlarda taqdim etilmaslik yoki kech taqdim etish holatlari mavjud.

**Taklif:** 2026-yil 1-yanvardan boshlab, barcha yer uchastkalari va ko'chmas mulk obyektlari bo'yicha yer va mol-mulk solig'i hisobotlarini soliq to'lovchilar tomonidan taqdim etish majburiyatini bekor qilgan holda, soliq organlari tomonidan avtomatik hisoblash.

Taklifning amaliyotga joriy qilinishi natijasida hisoblanmasdan qolgan yer va mol-mulk soliqlarining belgilangan muddatlarda hisoblanishi va byudjetga o'rtacha 1 trln.so'm qo'shimcha mablag' tushishi imkoniyati yaratiladi. 2024-yil davomida 16,3 mingta soliq to'lovchilarning 1 trln.so'mga shakllangan soliq hisobotlar taqdim etilmagan (4,3 mingta — 261,6 mlrd so'mlik mulk solig'i, 11,9 mingta — 775,2 mlrd.so'mlik yer solig'i). Ushbu soliq to'lovchilarga 2024-yilda 27,2 mingta holatda 83,7 mlrd.so'mlik va 2025 yilda 13,2 mingta holatda 45,9 mlrd.so'mlik ma'muriy jarimalar qo'llanilgan.

**6. Muammo:** Yillik daromadi 100 mln.so'mdan o'tgan o'zini o'zi band qilgan shaxslar tomonidan soliq hisobotlari o'z vaqtida taqdim qilinmasdan va soliqlar to'lanmasdan qolinmoqda. Ma'lumot uchun: 2024-yil yakunlari bo'yicha 5,7 ming nafar o'zini o'zi band qilgan shaxslarning daromadi 100 mln.so'mdan oshgan.

Soliq kodeksiga asosan mazkur shaxslar tovar aylanmasi 100 mln so'mdan oshganda har oy yakuni bilan keyingi oyning 15 sanasigacha AOS hisobotini taqdim etishi belgilangan.

**Taklif:** Soliq organlarining "Soliq" mobil ilovasida o'zini o'zi band qilgan shaxslarning shaxsiy kabinetini joriy etish;

o'zini o'zi band qilgan shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar uchun to'lovlarni soliq organlarining "Soliq" mobil ilovasi yoki boshqa to'lov tashkilotlari orqali amalga oshirish hamda xarid chekinging fiskal belgisini matritsali shtrix kod (QR-kod) yordamida shakllantirish imkoniyatini yaratish;

o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar uchun aylanmadan olinadigan soliq hisobotini soliq organlari tomonidan avtomatik tarzda shakllantirish va hisoblash.

Taklifning amaliyotga joriy qilinishi natijasida byudjetga taxminan 48 mlrd.so‘m tushum imkoniyatini beradi. Bugungi kunda 201 ta Marketpleyslar soliq organlarining ma‘lumotlar bazasiga integratsiya qilingan va rasmiylashtirilgan elektron cheklar va EHFlar orqali o‘zini o‘zi band qilgan shaxslarning daromadlarini aniqlash imkoniyati mavjud.

Shunga asosan, o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar tomonidan soliq majburiyatlarini o‘z vaqtida bajarish, ularga yengillik yaratish hamda ortiqcha jarimalar qo‘llanilishini oldini olish maqsadida mazkur taklif kiritilmoqda. Shuningdek, to‘lov manbai yuridik shaxs bo‘lmagan hamda daromadi 1 mlrd so‘mdan oshgan shaxslar bo‘yicha QQS va foyda solig‘ini hisoblashning o‘ziga xos xususiyatlari mavjudligini inobatga olib, Soliq kodeksida belgilangan tartib saqlab qolinmoqda.

**7.Muammo:** Amaldagi qonunchilikda chet ellik shaxslar tomonidan xizmatlar ko‘rsatish joyi O‘zbekiston Respublikasi deb hisoblanmagan taqdirda, soliq agentlari tomonidan hisobot taqdim etilmayapti. Bu esa o‘z navbatida xarid qilingan xizmatlar va amalga oshirilgan to‘lovlar to‘g‘risida ma‘lumotlarni avtomat shakllantirish imkoni bo‘lmayapti.

Ma‘lumot uchun: 2024-yilda soliq agentlari tomonidan realizatsiya qilish joyi O‘zbekiston Respublikasi emas deb hisoblangan 24,2 trln.so‘m xizmatlardan, 3,8 trln.so‘mi noto‘g‘ri talqin qilinganligi aniqlangan. Misol uchun: “Tashkent Construction Development” MChJ 2024-yil sentyabr oyida “Palvan Insaat Turizm Lojistik Sanayi Ticaret Limited Sirketi” (Turkiya) kompaniyasidan 05.09.2023-y IM 01-sonli shartnoma orqali tadqiqot bo‘yicha jami 9,7 mlrd..so‘mga xizmatlar import qilingan. Jamiyat tomonidan ushbu xizmatlarning realizatsiya qilish joyi O‘zbekiston Respublikasi emas deb hisoblanib hisobot topshirilmagan. Soliq organlari talabiga asosan jamiyat tomonidan joriy yil 28-fevralda qayta hisobot taqdim etilib, mazkur xizmatlarning realizatsiya qilish joyi O‘zbekiston Respublikasi deb hisoblanib, qo‘shimcha 1,04 mlrd.so‘m soliq to‘langan.

**Taklif:** Chet ellik shaxslar tomonidan xizmatlar ko‘rsatish joyidan qat’iy nazar soliq agentlariga hisobot taqdim etish majburiyatini yuklash.

Taklifning amaliyotga joriy qilinishi natijasida davlat byudjetiga yiliga o‘rtacha 800 mlrd.so‘m soliq tushishi mumkin.

Taklif soliq agentlarining majburiyatlarini aniqlashtirishga, noaniq talqinlarni bartaraf etishga, tashqi savdo operatsiyalarini amalga oshirishda QQSning to‘g‘ri hisoblanishi, to‘liqligi va o‘z vaqtida to‘lanishi ustidan nazoratni kuchaytirishga qaratilgan.

Rossiyada chet ellik shaxslar tomonidan xizmatlar ko'rsatish joyidan qat'iy nazar soliq agentlariga hisobot taqdim etish majburiyati yuklangan. Rossiyaning soliq qonunchiligiga muvofiq, chet ellik shaxslar (fizik va yuridik shaxslar) Rossiyada xizmat ko'rsatganida, ularning soliq agentlari (ya'ni, xizmatlarni qabul qiluvchi tashkilot yoki shaxs) ushbu xizmatlarga oid soliq hisobotini taqdim etishlari talab qilinadi.

Bu jarayon, odatda, Rossiyadagi soliq organlari bilan aloqa qilish va soliq majburiyatlarini bajarish uchun zarur bo'lgan barcha ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Chet ellik shaxslar uchun bu majburiyatlar, shuningdek, ularning faoliyatini nazorat qilish va soliq bazasini kengaytirish maqsadida joriy etilgan.

### **Soliq va yig'implarni to'lash (qaytarish) bilan bog'liq muammolar.**

**1. Muammo:** Soliq va yig'implar bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish uchun har bir soliq turi va hududlar bo'yicha alohida g'aznachilik hisob-raqamlari mavjud bo'lib ularning soni juda ko'p. Natijada, tadbirkorlik subyektlari tomonidan soliqlarni to'lashda xatoliklarga yo'l qo'yilishi yoki mablag'larni noto'g'ri taqsimlanishi natijasida bir vaqtning o'zida ayrim soliqlar bo'yicha soliq qarzi va ayrimlarida ortiqcha to'lov mavjudligiga olib kelib, qarz bo'yicha penya hisoblanib soliq to'lovchilarning moliyaviy faoliyatiga salbiy ta'sir qilmoqda.

**Taklif:** Soliq va yig'implar bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish uchun g'aznachilikda yagona soliq hamyonini joriy qilish. Bunda, soliq organlari tomonidan kelib tushgan mablag'larni avtomatlashtirilgan tartibda soliq turlari bo'yicha taqsimlash nazarda tutiladi.

Yagona soliq hamyonini joriy qilish orqali tadbirkorlik subyektlariga majburiyatlarini bajarishda yengillik yaratilishi bilan bir qatorda, to'lovlarni amalga oshirishda xatoliklarga yo'l qo'yilishi va ortiqcha ustamalar (penya) hisoblanishini oldi olinadi.

Ma'lumot uchun: 2025-yilning 1-aprel holatiga 99,2 mlrd.so'm soliq qarzi mavjud 101,9 mingta subyektning boshqa soliq soliq turlaridan (QQSdan tashqari) 5,8 trln.so'm ortiqcha to'lovi mavjud. Shu bilan birga, ularda soliqlarni o'z vaqtida to'lamaganligi uchun 57,8 mlrd.so'm ustama (penya) yuzaga kelgan.

Ushbu amaliyot, Qozog'iston va Buyuk Britaniyada va Italiyada joriy etilgan.

**2. Muammo:** Sudyalar sonining cheklanganligi va ish hajmining ko'pligi sababli kiritilgan arizalar sudlar tomonidan qabul qilinmasdan turli xil vajlar bilan qaytarilishi natijasida qarzдорlarga nisbatan to'liq va o'z vaqtida majburiy undirish choralari ko'rish ishlari cho'zilib ketilmoqda.

**Taklif:** Jismoniy shaxslarning tan olingan soliq qarzini mol-mulki hisobidan undirishni soliq organlari qarori asosida amalga oshirish va mol-mulkiga taqiq qo'yish, ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlardan undirish. Soliq qarzi to'langunga



(bartaraf etilgunga) qadar mazkur kadastr obyektiga elektr energiya va gaz uchun to'lovlar amalga oshirilishini cheklash:

soliq qarzi umumiy summasi bir million so'mdan oshgan qarzdor jismoniy shaxsning chet elga chiqib ketishini vaqtincha cheklash;

yo'l harakati huquqbuzarliklari bo'yicha xabardor qilgan shaxslarga mukofotlar to'lash chog'ida soliq qarzini ushlab qolish.

Taklifning amaliyotga joriy qilinishi natijasida byudjetga qo'shimcha 500 — 600,0 mlrd.so'mlik soliq qarzining o'z vaqtida undirilishiga imkoniyat yaratiladi. Soliq qarzini sud tartibida undirish qarzdor jismoniy shaxs zimmasiga qo'shimcha xarajatlarni yuklaydi. Misol uchun, 1,0 mln so'm qarzi bor soliq to'lovchi tomonidan 18 750 so'm pochta xarajati, 375000 so'm davlat boji, 10000 so'm ijro yig'imi, jami qo'shimcha ravishda 403750 so'm sarflanadi. Ma'lumot uchun: Jismoniy shaxslarning mol-mulk, yer va daromad (deklaratsiya) soliqlari bo'yicha soliq qarzi 2025-yil 1-yanvar holatiga 2,5 trln.so'mni tashkil etgan bo'lsa, o'tgan yil boshiga nisbatan 157,2 mlrd.so'mga yoki 2022-yil boshiga nisbatan 562,2 mlrd.so'mga oshgan.

IHTTning 49 ta davlatlarida soliq organlari soliq qarzini mol-mulki hisobidan undirish vakolatiga ega ushbu vakolatlar qonun bilan mustahkamlan-gan hamda soliq organlari mol-mulkni xatlash va taqiq qo'yish huquqiga ega. Amerikada soliq organlari soliq qarzini qarzdor egaligidagi har qanday mol-mulk yoki daromadlardan undirishi yoki mol-mulkni olib qo'yishi va sotishi mumkin.

**3.Muammo:** Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar soliqlarni bank hisobvarag'i orqali to'lamasdan, jismoniy shaxslar tomonidan elektron to'lov tizimlari (PayMe, Click, Paynet, Uzum va boshqalar) orqali amalga oshirilishi holatlari kuzatilmoqda. Bu esa o'z navbatida xatolik bilan to'langan to'lovlar sonining ortishiga, soliq to'lovlarning ShHga hisobga olinmasdan, Soliq kodeksining 110-moddasiga asosan penya hisoblanishiga hamda murojaatlar sonining keskin ortishiga sabab bo'lmoqda.

**Taklif:** Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan soliqlarni o'zlarining shaxsiy kabineti orqali yoki soliq organlariga integratsiya qilingan elektron to'lov tizimlar orqali to'lash. Taklifning amaliyotga joriy qilinishi natijasida noto'g'ri to'lovlarning hamda ortiqcha penya to'lashning oldi olinadi.

Soliq kodeksining 74-moddasida yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar soliqlarni banklar orqali naqd pulsiz shaklda to'lashi ko'rsatib o'tilgan. Ma'lumot uchun: Respublika bo'yicha 9 059 ta korxonalarining 51 331 ta holatda 258,3 mlrd.so'mlik to'lovlari noto'g'ri g'aznachilikka to'langan summalar sifatida aks ettirilgan. Buning natijasida 8 541 ta korxonalarga 7,6 mlrd.so'm penya hisoblangan.

Germaniya, Fransiya va Buyuk Britaniya kabi mamlakatlarda soliqlarni onlayn banking yoki soliq organlari bilan integratsiya qilingan boshqa to'lov tizimlari orqali

to'lash uchun bank hisobvarag'idan foydalanishadi. Janubiy Koreyada soliq to'lovchining shaxsiy kabineti orqali "Hometax" dasturidan foydalangan holda soliqlarni to'lash mumkin. Ozarbayjonda soliq to'lovchining shaxsiy kabineti "e-taxes" asosida soliqlarni to'lash mumkin.

**4.Muammo:** Soliq organlari tan olingan soliq qarzi bo'yicha mol-mulkni sotish vakolatiga ega bo'lmaganligi natijasida, xatlangan mol-mulklar saqlash uchun korxonaning o'z ixtiyorida qoldiriladi. Soliq organlari mol-mulk hisobidan undirish to'g'risidagi soliq organi qarorini MIBga ijro uchun yuborilganda, davlat ijrochilari tomonidan qaror ijrosi o'z vaqtida ta'minlanmaydi.

**Taklif:** Soliq organiga xatlangan mol-mulklarni sotish, xatlash va sotish bilan bog'liq xarajatlarni qarzdor hisobidan qoplash vakolatini berish. Sud qarori asosida davlat foydasiga o'tkaziladigan pul mablag'lari va boshqa mol-mulklar hisobidan birinchi navbatda soliq qarzini qoplash va soliq qarzini qarzdorning surishtiruv, tergov organlarining yoki sudning depozit hisobvaraqlarida vaqtincha saqlanayotgan pul mablag'laridan undirish;

qarzdorning banklardagi va boshqa kredit tashkilotlaridagi hisobvaraqlarida, omonatlarida turgan yoki saqlash uchun qo'yilgan pul mablag'larini xatlash va ulardan foydalanishga doir cheklovlar o'rnatish.

Taklif amaliyotga joriy qilinganda, yiliga byudjetga o'rtacha 3,5-4 trln.so'm qarzdorlik undirish imkoniyati paydo bo'ladi.

Mol-mulkni sotishdan tushgan tushum orqali qarzdor korxonalarning qarzini undirish imkoni oshadi. Ma'lumot uchun: soliq organlari tomonidan MIB ish yurituviga berilgan hujjatlar soni 314 mingta 7,9 trln so'mlik, shundan ijro muddati 2 oydan oshgani 216 mingta (69%) 4,4 trln so'm. Germaniya, AQSh, Rossiya, Turkiya, Fransiya, Qozog'istonda soliq idorasi sud qarorisiz mulkni xatlab, taqiq qo'yib, auksion orqali sotish vakolati mavjud.

### **Soliq nazorati bilan bog'liq muammolar.**

**1.Muammo:** Soliq to'lovchilar soliq organlarini kalendar yilda o'zlari tuzgan, nazorat qilinadigan bitimlar to'g'risida xabardor qilishi shartligi belgilangan bo'lsada, ushbu majburiyatni bajarmaganlik uchun javobgarlik chorasi mavjud bo'lmaganligi sababli ular tomonidan xabarnoma yuborilmayapti. Ma'lumot uchun: 2022-2023-yillarda jami 12 683 ta subyekt tomonidan nazorat qilinadigan bitim amalga oshirilgan bo'lib, ulardan 3 826 tasi (30%) soliq organlariga xabarnoma taqdim etgan, qolgan 8 857 tasi (70%) taqdim etmagan.

**Taklif:** Soliq to'lovchi tomonidan nazorat qilinadigan bitimlar to'g'risidagi xabarnomani soliq organiga belgilangan muddatda taqdim etmaslik yoki noto'g'ri ma'lumotlarni taqdim etganlik uchun yuz million so'm miqdorida jarima qo'llash.

Taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida nazorat qilinadigan bitimlar to'g'risidagi xabarnomani o'z muddatida taqdim qilinishi ta'minlanib, qo'shimcha soliq bazasini izlab topish imkoniyati yaratiladi hamda byudjetga o'rtacha 160 mlrd.so'm qo'shimcha mablag' tushishi mumkin.

Shu sababli majburiyatga ega bo'lgan 8 857 ta (70%) korxona xabarnoma taqdim etmagan. Misol uchun, BUXORO NEFTNI QAYTA ISHLASH ZAVODI MChJ tomonidan 2022-2023-yillar va 2024-yil 1-yarim yillik davomida qayta ishlash (davlat) xizmatlari bo'yicha farqlar aniqlangan. Yuzaga kelgan farqqa nisbatan 157 mlrd.so'm soliq hisoblangan. Soliq to'lovchilar tomonidan nazorat qilinadigan bitimlar bo'yicha xabarnoma o'z vaqtida topshirilmaganligi uchun:

Rossiyada 100 ming rubl (13,2 mln.so'm) va Singapurda 20 ming dan 100 ming ringitgacha (51,2 mln.so'm – 255,9 mln.so'mgacha) jarima solinadi.

**2. Muammo:** Qonunchilikda nazorat qilinadigan chet el kompaniyalari to'g'risidagi xabarnomani taqdim etish uchun majburiyat belgilangan bo'lsada, ushbu majburiyatni bajarmagan-lik uchun javobgarlik chorasi belgilanmagan. Ma'lumot uchun: 706 ta subyekt (318 tasi faol, 388 tasi nafaol) tomonidan chet elda kompaniya tashkil etilgan. Shundan 318 ta faol subyektlardan 12 ta subyekt xabarnoma taqdim qilgan, 311 ta subyekt xabarnoma taqdim qilishi lozim. NQChEK mavjud korxonalar soni 93 ta, tugatilganlari 224 tani tashkil etadi. Taqsimlanmagan foydasi 110 mln so'm.

**Taklif:** Nazorat qilinadigan chet el kompaniyalari to'g'risidagi xabarnomani belgilangan muddatda taqdim etmaslik yoki ma'lumotlarni noto'g'ri taqdim etganlik uchun o'n million so'm miqdorida jarima qo'llash.

Taklifning amaliyotga joriy qilinishi natijasida nazorat qilinadigan chet el kompaniyalari to'g'risida ma'lumotlarning belgilangan muddatda taqdim qilinishi ta'minlanib, buning natijasida qo'shimcha soliq manbalarini topish imkoni paydo bo'ladi. Korxonalar chet elda ochilishini inobatga olib, soliq organlarida ushbu ma'lumotlarni mustaqil ravishda olishning imkoni mavjud emas. Soliq to'lovchilar tomonidan nazorat qilinadigan chet el kompaniyalari bo'yicha xabarnoma o'z vaqtida topshirilmaganligi uchun.

## **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Yuqorida keltirib o'tilgan taklif O'zbekistonda 2026-yilda soliq ma'murchiligini yanada takomillashtirish va raqamlashtirish amaliyotga joriy qilinishi soliq ma'murchiligini rivojlantirishga olib keladi deb hisoblaymiz.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Федоров Андрей Николаевич. Налоговое администрирование и стимулирование инвестиционной активности крупнейших налогоплательщиков. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидат экономических

наук. Нижний Новгород 2010.

2. 2.Кенэ Избранные экономические произведения.-М.Соцэкгз. 1960;  
Дж.М.Кейнс Общая теория занятости, процента и денег. – М.: 1993;

3. Камалнев Тимур Шамильевич. Налоговое администрирование крупнейших налогоплательщиков. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидат экономических наук. Москва 2009.

4. И.А.Майбуров Налоги и налогообложение: учебник для студентов вузов, обучающихся по специальностям; под ред. И.А.Майбурова.-М.: юнити-дана,2007.-655с.).

5. Юнак Алексей Алевтинович. Проблемы правового регулирования налогового контроля и учета крупнейших налогоплательщиков. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидат юридических наук. Москва 2009. с.12.

6. Н.М.Дементьева. налоговая политика государства.  
[https://nsuem.ru/science/publications/science\\_notes/issue.php?ELEMENT\\_ID=1689](https://nsuem.ru/science/publications/science_notes/issue.php?ELEMENT_ID=1689).

7. Карп М.В Налоговый менеджмент: Учебник для вузов. – М.: Юнити-дана, 2001.– 39 с.

8. Ситникова Ольга Владимировна. Совершенствование налогообложения крупнейиших консолидированных налогоплательщиков. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидат экономических наук. Москва 2012.

9. Дарькина Ю.А. Особенности налогового администрирования крупнейших налогоплательщиков. Interactive science. 3 (37) • 2019.

10. Soliq qo‘mitasi ma’lumotlari. [www.soliq.uz](http://www.soliq.uz).

11. Нормурзаев У. Х. Солиқ имтиёзларининг самарадорлиги: назария, методология ва амалиёт. 08.00. 07 – Молия, пул муомаласи ва кредит. Иқтисодиёт фанлари бўйича фан доктори (DSc) диссертацияси автореферати. Тошкент. 2022.

12. Нормурзаев, У. (2024). Ўзбекистонда солиқ сиёсатини такомиллаштиришда худудлараро солиқ инспекцияси ўрни ва аҳамияти. Iqtisodiy Taraqqiyot Va Tahlil, 2(4), 457–467. <https://doi.org/10.60078/2992-877X-2024-vol2-iss4-pp457-467>.

13. Normurzayev Umid Xolmurzayevich O‘zbekistonda tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini joriy etilishi va undagi asosiy o‘zgarishlar tahlili. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot: № 4 (2024):«Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot» jurnali.

14. Normurzayev Umid Xolmurzayevich, O‘zbekiston Respublikasining 2024-



yilgi soliq qonunchilik hujjatlariga kiritilgan asosiy o'zgarish va soliq imtiyozlari berish tartibini takomillashtirish masalalari, Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot: Tom 1 № 1 (2024):«Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot» jurnali.



# Marketing

*ilmiy, amaliy va ommabop jurnali*

**Muharrir:** Xakimov Ziyodulla Axmadovich  
**Ingliz tili muharriri:** Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich  
**Rus tili muharriri:** Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li  
**Musahhih:** Karimova Shirin Zoxid qizi  
**Sahifalovchi va dizaynerlar:** Sadikov Shoxrux Shuxratovich  
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

**2025-yil, iyun, 6-son**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: [info@marketingjournal.uz](mailto:info@marketingjournal.uz)  
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)  
Tel.: +998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



**"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali** 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710. GOCT 7.56-2002** "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlato standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**